

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

2019-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 944 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 323 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2104 ta (21,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 12023 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1393	1386	102
 Sanoat	2016	2003	210
 Qurilish	1153	1151	116
 Savdo	2443	2426	249
 Tashish va saqlash	497	495	37
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	936	929	77
 Axborot va aloqa	169	167	9
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	236	235	9
 Boshqa turlari	3303	3231	135



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2019 - yilning 1-aprel holatiga 12146 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 20,1 % savdo, 16,6 % sanoat, 9,5 % qurilish, 11,5 % qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,9 % sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % axborot va aloqa, hamda 27,2 % tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Navoiy shahri (3558 ta), Karmana tumani (2109 ta), Qiziltepa tumani (1304 ta) va Xatirchi tumani (1222 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Navbahor (1081 ta), Nurota (1001 ta) hamda Zarafshon (785 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 12023 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2104 ta (21,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 12023 tani tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,2 % savdo, 16,7 % sanoat, 9,6 % qurilish, 11,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa va 26,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Navoiy shahri (3507 ta), Karmana (2098 ta), Qiziltepa (1294 ta), Xatirch (1210 ta) va Navbahor (1070 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (471 ta), Konimex (391 ta) hamda Tomdi (212 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.04.2017 y.

• 9054 ta

01.04.2018 y.

• 9919 ta

01.04.2019 y.


• 12023 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2019-yil yanvar-mart oylarida 944 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 52,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahri (226 ta), Karmana (178 ta), Xatirchi (93 ta) va Navbahor (88 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Tomdi (25 ta), Konimex (41 ta), hamda Uchquduq (57 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rilganda, eng ko'pi savdo (249 ta), sanoat (210 ta), qurilish (116 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (102 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (77 ta) sohalarida tashkil etilgan.

Eng kami esa tashish va saqlash (37 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) hamda axborot va aloqa (9 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.04.2017 y.		01.04.2018 y.		01.04.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	408	100,0	621	100,0	944	100,0
Savdo	87	21,3	80	12,9	249	26,4
Sanoat	96	23,5	115	18,5	210	22,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	85	20,8	113	18,2	102	10,8
Qurilish	34	8,3	56	9,0	116	12,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	44	10,8	50	8,1	77	8,2
Tashish va saqlash	23	5,6	20	3,2	37	3,9
Axborot va aloqa	3	0,7	13	2,1	9	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	1,5	10	1,6	9	1,0
Boshqa turlari	30	7,5	164	26,4	135	14,3

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARNI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-aprel holatiga 10045 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar-3574 ta, oilaviy korxonalar-872 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar-5351 ta, va boshqalar 248 tani tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 133 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 69 taga yoki 203,0 % ga o'sgan. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 83 tasi qo'shma korxonalar, 50 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar (54 ta yoki jamidagi ulushi 40,6 %), Karmana (30 ta yoki 22,6 %), Nurota (11 ta yoki 8,3 %), tumanlari hamda Zarafshon shaharda (11 ta yoki 8,3%) hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Tomdi (1 ta yoki 0,8 %), Uchquduq (2 ta yoki 1,5 %), Xatirchi (3 ta yoki 2,3 %) va Navbahor (7 ta yoki 5,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 aprel holatiga ko'rsak, eng ko'p sanoatda 79 tani (59,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 18 tani (13,5 %), savdoda 9 tani (6,8 %) hamda boshqa faoliyat turlarida 12 tani (9,0 %) tashkil qilgan.

Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (0,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 tani (0,8 %), tashish va saqlashda 3 tani (2,3%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda va qurilishda 5 tadan (3,8 % dan) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, savdo va boshqa faoliyat turlarida to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 19 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi 4 ta, Janubiy Koreya Respublikasi 3 ta, Qozog'iston va Xitoy Xalq Respublikalari - 2 tadan, Turkiya Respublikasi 1 ta hamda boshqa davlatlar bilan 7 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-mart oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (12 ta), qurilish (2 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (1 ta) va boshqa faoliyat turlari (3 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi

	2018 yil yanvar-mart		2019 yil yanvar-mart	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Jami:	4	100,0	19	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	25,0	1	5,3
Sanoat	3	75,0	12	63,2
Qurilish	x	x	2	10,5
Savdo	x	x	x	x
Tashish va saqlash	x	x	x	x
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	x	x	x	x
Axborot va aloqa	x	x	x	x
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	x	1	5,3
Boshqa turlari	x	x	3	15,7




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2019-yil 1 aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 9923 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1 aprel holatiga qaraganda 25,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2996 tasi (30,2 %) Navoiy

shahri, 1849 tasi (18,6 %) Karmana, 1059 tasi (10,7 %) Qiziltepa hamda 906 tasi (9,1 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9923 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2417 tasi (24,4 %) – savdo, 1979 tasi (19,9 %) - sanoat, 1149 tasi (11,6 %) - qurilish, 1352 tasi (13,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 928 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 485 tasi (4,9 %) - tashish va saqlash, 176 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy

xizmatlar ko'rsatish, 156 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1281 tasi (12,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2019-yil yanvar-mart oylarida 889 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 73,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahri (211 ta), Karmana (170 ta), Xatirchi (93 ta) va Navbahor (82 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kam Tomdi (24 ta), Konimex (38 ta), hamda Uchquduq (54 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (249 ta), sanoatda (209 ta), qurilishda (115 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (100 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (9 ta), sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta), hamda tashish va saqlashda (37 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1 aprel holatiga 872 tani tashkil etib, ulardan 870 tasi yoki 99,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 49,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 24,5 % yoki 213 tasi sanoat, 23,9 % yoki 208 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 22,3 % yoki 194 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,8 % yoki 146 tasi savdo, 1,8 % yoki 16 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % yoki 11 tasi qurilish, 1,1 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 1,1% yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 7,2 % yoki 62 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi eng kami esa axborot va aloqa va tashish va saqlash xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
 Tel.:71-230-84-56